



BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI BAHOLASHDAGI INNOVATSION RUBRIKALAR

Suvankulova Malika Baxtiyor qizi

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar

markazi mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20822576>

Annotatsiya. Mazkur tezisda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashga xizmat qiluvchi innovatsion rubrikalarning mazmuni va afzalliklari yoritilgan. Kognitiv va metakognitiv yondashuvlarga asoslangan hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan zamonaviy rubrikalar tahlil qilinib, mualliflik rubrikasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, kompetensiya, baholash, rubrika, ingliz tili ta'limi, elektron rubrikalar, metakognitiv ko'nikmalar.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va xalqaro ta'lim standartlarining takomillashuvi natijasida zamonaviy pedagogdan nafaqat o'z fanini mukammal bilish, balki murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarga innovatsion yechimlar topish hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish kabi muhim kompetensiyalarga ega bo'lish talab etilmoqda. Shu bois XXI asr ko'nikmalari qatorida tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida faqat lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bilan cheklanib qolish zamonaviy ta'lim ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Xorijiy til o'qituvchisi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularda tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish, argumentlash va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish



ko'nikmalarini ham shakllantirishi zarur. Shu jihatdan mantiqiy fikrlash kompetensiyasi bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, amaldagi baholash tizimlari asosan talabalarning grammatik to'g'riligi, lug'at boyligi va kommunikativ qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ularning intellektual faoliyati va fikrlash jarayonlarini kompleks baholash imkoniyatlari cheklangan. Natijada talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning amaliy qo'llanilishi, tanqidiy yondashuv asosida xulosa chiqarish hamda mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlari yetarli darajada aks etmaydi. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini aniqlashga xizmat qiluvchi takomillashtirilgan baholash vositalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasining mazmuni va ahamiyati. Mantiqiy fikrlash kompetensiyasi shaxsning ma'lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, dalillarni solishtirish hamda asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya deduktiv va induktiv fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammoni hal qilish, refleksiya hamda argumentlash kabi ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyaning shakllanganlik darajasi shaxsning intellektual salohiyati va kasbiy faoliyatdagi samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun mantiqiy fikrlash kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki xorijiy tilni o'qitish jarayoni faqat til birliklarini o'rgatish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muloqot madaniyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi. O'qituvchi turli pedagogik vaziyatlarni baholashi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali metodlarni tanlashi hamda o'quv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni mantiqiy asosda hal qilishi lozim. Shuningdek, mantiqiy fikrlash kompetensiyasi



bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularga ilmiy ma'lumotlarni tanqidiy baholash, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va innovatsion qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu sababli mazkur kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlash va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali diagnostik vositalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Innovatsion rubrikalarning nazariy asoslari. Ta'lim jarayonida rubrikalar talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Rubrikalar muayyan mezonlar va deskriptorlar asosida baholashning shaffofligi hamda obyektivligini ta'minlaydi. Biroq an'anaviy rubrikalar asosan natijaga yo'naltirilgan bo'lib, talabalar faoliyatining faqat yakuniy natijasini aks ettiradi va ularning fikrlash jarayonini to'liq baholash imkonini bermaydi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishi bilan baholashning yangi shakllarini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Innovatsion rubrikalar aynan shu ehtiyojlardan kelib chiqqan holda shakllanib, ular talabalarning intellektual faoliyati, mantiqiy operatsiyalari hamda tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Mazkur rubrikalar Blum taksonomiyasi, konstruktivistik yondashuv va kognitiv psixologiya tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqiladi. Ular talabalar tomonidan bilimlarni oddiy qayta tiklashni emas, balki tahlil qilish, sintez qilish, baholash va yaratish kabi yuqori darajadagi intellektual faoliyatni baholash imkonini beradi. Shu jihatdan innovatsion rubrikalar zamonaviy baholash tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Mualliflik baholash rubrikasi. Mazkur tadqiqot doirasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini aniqlash va diagnostika qilishga qaratilgan takomillashtirilgan baholash rubrikasi ishlab chiqildi. Ushbu rubrika til kompetensiyalari va mantiqiy operatsiyalarni o'zaro integratsiyalashgan holda baholash imkonini beradi. Rubrika sakkizta asosiy mezondan iborat bo'lib, har bir mezon to'rt



daraja asosida baholanadi. Mazkur yondashuv talabalar faoliyatini nafaqat natija nuqtai nazaridan, balki fikrlash jarayonining sifat ko'rsatkichlari asosida ham tahlil qilish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan rubrika yordamida talabalar tomonidan argumentlarning izchilligi, deduktiv va induktiv fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, mantiqiy xatolarni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, muammoni hal qilish hamda reflektiv fikrlash ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash mumkin. Mazkur mezonlarning har biri bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadval 1

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholash rubrikasi

№	Baholash mezonlari	4-daraja (Yuqori)	3-daraja (Yaxshi)	2-daraja (Qoniqarli)	1-daraja (Past)
1	Argumentlarning izchilligi (Argumentative Integrity)	Dalillar mantiqan bog'langan, xulosalar asoslangan	o'zaro Fikrlar asosan izchil, Mantiqiy ayrim kamchiliklar mavjud	bog'lanish qisman kuzatiladi	Fikrlar tartibsiz va izchillik mavjud emas
2	Deduktiv fikrlash	Umumiy qoidalaridan to'g'ri xulosalar chiqaradi	Ayrim noaniqliklar mavjud	Xulosalar qisman asoslangan	Xulosa chiqarishda qiyinchilik kuzatiladi
3	Induktiv fikrlash	Faktlar asosida to'g'ri umumlashtirish amalga oshiradi	Umumlashtirishda kichik kamchiliklar mavjud	Umumlashtirish qisman to'g'ri	Faktlardan umumiy xulosa chiqara olmaydi



4	Tanqidiy tahlil qilish	Muammoni chuqur tahlil qiladi va muqobil fikrlarni baholaydi	Tahlil yetarli darajada amalga oshiriladi	Yuzaki qiladi	Tahlil qilish qobiliyati sust rivojlangan
5	Mantiqiy xatolarni aniqlash (Logical Fallacies Detection)	Xatolarni aniqlaydi va izohlaydi	Ko'pchilik xatolarni aniqlaydi	Ayrim xatolarni aniqlaydi	Mantiqiy xatolarni aniqlay olmaydi
6	Sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash	Sabab va oqibatni to'liq asoslaydi	Asosan ifodalaydi	to'g'ri Qisman tushuntira oladi	Bog'lanishni aniqlay olmaydi
7	Muammoni hal qilish qobiliyati	Bir nechta samarali yechimlarni qiladi	Muammoning taklif maqbul yechimini topadi	Yechim qisman samarali	Muammoni hal qilishda qiynaladi
8	Refleksiv fikrlash (Self-Correction)	O'z xatolarini mustaqil aniqlab tuzatadi	Ko'pchilik xatolarini tuzata oladi	O'qituvchi yordamida tuzatadi	O'z xatolarini aniqlay olmaydi

Mazkur rubrika bo'yicha har bir mezon 1 balldan 4 ballgacha baholanadi. Natijada maksimal 32 ball to'plash mumkin. Olingan natijalarga ko'ra mantiqiy fikrlash kompetensiyasining shakllanganlik darajasi quyidagicha tavsiflanadi:

- 29–32 ball – yuqori daraja;
- 21–28 ball – yaxshi daraja;
- 13–20 ball – qoniqarli daraja;
- 8–12 ball – past daraja.

Mazkur baholash tizimi talabalarning nafaqat yakuniy natijalarini, balki ularning fikrlash jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, rubrika diagnostik xususiyatga ega bo'lib, individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longmans, Green and Co., 1956.
2. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching and Assessing. – New York: Longman, 2001.
3. Brookhart S.M. How to Create and Use Rubrics for Formative Assessment and Grading. – Alexandria: ASCD, 2013.
4. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New York: Psychology Press, 2014.
5. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2014.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
7. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – Open University Press, 2011.
8. Facione P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – California Academic Press, 2015.